



MAMLAKATIMIZ IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI AHAMIYATI

Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich¹

e-mail: yangiboymustafaqulov@gmail.com

Qilichov Sobir Savriyevich¹

e-mail: qilichovsobir27@gmail.com

¹"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası dotsent v.b, Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent,
100095, O'zbekiston Respublikasi

²"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası katta o'qituvchisi, Toshkent Amaliy Fanlar
Universiteti, Toshkent, 100149, O'zbekiston Respublikasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14905239>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi global rivojlanish davrida innovatsiyalar mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib borayotganligi va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kunning rivojlanishi uchun hamda taraqqiy topishida innovatsiyalarning nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi imtiyozlar haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, modernizatsiya, infratuzilma, kredit, investitsiya, bank, foiz, resurs, kashfiyot, moliyalashtirish.

1 Kirish.

Hozirgi vaqtda, iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalar eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqin kunlarga, bu nom ekzotik, noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan, aytish joiz bo'lsa, mavhum narsani eslatardi. Ammo, bugungi kunga kelib innovatsiya tushunchasi va uning bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatlar dunyo iqtisodiyotini shiddat bilan zabt etmoqda. Keyingi paytlarda, korxonalar faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri, bir tomondan, innovatsion jarayonlar yordam berlsa, ikkinchi tomondan, yangi moliyaviy tuzilmalar yordam bermoqda.

So'nggi yillarda, mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan islohotlar natijasida, iqtisodiy jarayonlarda keskin burilish yuz berdi. Jumladan, iqtisodiyotimizda ta'lim sifati va qamrovini oshirish hamda rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining, kadrlarga bo'lgan talab darajasiga moslashuvchanligini ta'minlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakatimizning innovatsion salohiyatini yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha, samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqildi va tubdan yangilandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan O'zbekiston Respublikasini 2019—2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi, 2022—2026 yillarga mo'ljallangan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Innovatsion faoliyat to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. O'z navbatida, yuqorida ta'kidlab o'tilgan qonunlar real hayotda o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

2 Tahlillar va Natijalar

Bugungi kunda, mamlakatimizda aholi turmush darajasi, iqtisodiyotdagi mehnat unumdorligi va iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasi qoniqarsiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak, O'zbekiston rivojlangan davlatlarga nisbatan, ancha orqada desak - mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli, ushbu muammoni o'rganish, O'zbekiston iqtisodining barqaror rivojlanishining shakllari, usullari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash juda muhimdir. Innovatsion sohaning rivojlanish darajasi va dinamikasi aksariyat mamlakatlar uchun iqtisodiy



o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda mamlakatning jahon arenasidagi o'rni ishchi kuchi va tabiiy resurslarning ko'pligi bilan emas, balki inson kapitali sifati, ta'lim darajasi, bilimlardan amaliy foydalanish xususiyati va innovatsion faoliyati bilan belgilanadi.

Innovatsiya - bu rasmiylashtirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari hisoblanadi. Innovatsiyalar quyidagi shakllarda rasmiylashtirilishi mumkin: kashfiyotlar, ixtirolar, patentlar, savdo belgilari, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot uchun hujjatlar, texnologiya, menejment yoki ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Biroq buning o'zi yetarli emas, asosiy narsa yangilikni joriy qilish va ijobiy natijaga erishishdir. Shunday qilib, innovatsion faoliyat ikki bosqichdan iborat: birinchisi yangilikni sotib olishni (yoki yaratishni), ikkinchisi - uni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shu sababli, sanoat korxonasining (umuman jamiyatning) bunday faoliyatini faqat ushbu ikki bosqichni amalga oshirishni o'z ichiga olgan, iqtisodiy va boshqa turdagi ta'sirlarni keltirib chiqaradigan innovatsion jarayon deb atash mumkin. Sanoatdagi innovatsiyalar uchun foydalaniladigan resurslarning (mehnat, moddiy, moliyaviy, ilmiy va texnik) jami sanoatning innovatsion salohiyatini tashkil etadi. Innovatsion faoliyat maqsad emas, balki mamlakat iqtisodiyotini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirish vositasidir. Innovatsiyalarni tushunishning nazariy yondashuvlarini o'rganish har tomonlama tasnif berishga imkon beradi.

"Innovatsiyalardan foydalanish darajasi" tasniflash xususiyati ikkinchisidan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Masalan, mehnatning yakuniy natijalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan davlat sektori ishchilariga ish haqi to'lashning yangi tizimini ishlab chiqish milliy iqtisodiy darajadagi yangilik bo'lib, sanoatda mehnatni tashkil etishning yangi progressiv shakllari tarmoqdagi yangiliklar hisoblanadi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini boshqarish masalalari murakkab va ziddiyatli, sababi, bir necha tomonlar - davlat, venchur kapital firmalari, olimlar va ixtirochilar hamda universitetlarning o'zaro ta'siriga ta'sir qiladi. Zamonaviy jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida bilim iqtisodiyotini birinchi o'ringa olib chiqish uchun mamlakatning innovatsion rivojlanishi uchun ajralmas, to'liq va ayni paytda mobil va rivojlanayotgan strategik tizim va yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlari yaratilishi zarur.

O'zbekistonda innovatsiyalar va korporativ ilm-fan bozorining rivojlanish darajasini oshirish uchun favqulodda ehtiyoj bor, bu ilmiy-tadqiqot deb nomlanadi. Makroinnovatsiya strategiyasini shakllantirishning har bir tomonida har xil ko'rsatkichlarning turlicha nisbatlarini hisobga olgan holda, ma'lum strategiyalarni tanlashda har bir aniq vaziyatda tomonlarni siljitish kerak. Strategiyalarni amalga oshirish qo'llab-quvvatlash choralari tizimini yaratishni talab qiladi. Ko'rib turganingizdek, bu yerda juda ko'p tahliliy ishlar talab etiladi va jiddiy tahlillar yetarli bilimlarni talab qiladi. Bugungi kunda, aksariyat sanoati rivojlangan mamlakatlarga o'tish bilan uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga umid qilishadi.

4 Xulosa

Bizning fikrimizcha, sanoat, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa sektorlariga innovatsion ishlanmalarni joriy etish borasida ijobiy natijalarga erishilayotganiga qaramasdan, kashf etish va ixtiro o'zlashtirish, uni tijoriylashtirish va yakuniy ilmiy hajmdor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini birlashtiradigan uzluksiz tizimni yanada izchil rivojlantirish zarur. Innovatsion iqtisodiyot aslida bilimlar iqtisodiyotidir. Ta'lim muassasalarida va universitetlarda fan, texnika va texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash mamlakatimizni innovatsion rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarni yanada kengaytirish va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, iqtisodiyot, patentlash, menejment, marketing va tijoratlashtirish sohasida bilimli va yuqori malakali mutaxassislar talab etiladi. Shu bois mamlakatimizning texnika yo'nalishidagi aksariyat oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida ishlab chiqarish, tarmoqlar va umuman, mamlakatimiz kesimida tabaqalashtirilgan innovatsiya jarayonlarini tashkil etish va uning o'ziga xos jihatlarni o'rganish masalasiga ko'p vaqt ajratilishi zarur. Bundan tashqari, korxonalar rahbarlari va yetakchi mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish bo'yicha innovatsion jarayonni tashkil etish va uning afzalliklari xususida zarur bilimga ega bo'lish imkonini beradigan malakaviy kurs va dasturlarni tashkil etish lozim. Innovatsion jarayonning jadallashuvi savdo bozori uchun kurashishda qo'shimcha afzalliklar beradi. Zero, bugun innovatsiyalarni boshqalardan ko'ra tezroq joriy qilganlarga muvaffaqiyatga erishadi.



Muxtasar aytganda, mavjud meyoriy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, soliq, infratuzilma, moddiy-texnik va axborot shart-sharoitlarini yanada rivojlantirish, davlat ahamiyatiga molik innovatsion vazifalarni amalga oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish maqsadida kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga oid siyosatni amalga oshirish zarur. Innovatsion faoliyatni tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirishni yanada chuqurlashtirish, ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanish, mamlakatimiz ilm-fanining ilg'or yutuqlari va istiqbolli ilmiy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbir etish, pirovardida O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Rivojlanishning innovatsion usuli, sanoat, umuman xalq xo'jaligi, ilm-fan va texnikaning so'nggi yutuqlari - axborot texnologiyalari, biotexnologiya, yangi materiallar, resurslarni va tabiatni tejash texnologiyalaridan kengroq foydalanish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun korxonalar va umuman iqtisodiyotning innovatsion sezgirligini oshirish zamonaviy sanoat rivojlangan davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Jamiyat uchun mavjud bo'lgan resurslarning cheklanganligi sababli har bir erishilgan texnologiya darajasi ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'ziga xos egri chizig'i bilan tavsiflanadi. Samarali ishlab chiqarish sharoitida bir ijtimoiy ehtiyojni qondirishga qilingan har qanday urinish boshqa ehtiyojni qondirish imkoniyatlarining pasayishiga olib keladi. Biri ikkinchisi uchun bir narsani qurbon qilishi kerak, bu egri chiziqdagi har bir nuqta jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan va ilmiy-texnika yutuqlaridan maksimal darajada to'liq foydalanish bilan mavjud ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasidagi ma'lum nisbatga mos keladi.

Tarix shuni ko'rsatadiki, yangi sanoat texnologiyalarini joriy etish har doim iqtisodiy o'sishga va aholining turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, bu esa rivojlanishning yangi bosqichida boshqa yangicha yangiliklarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoit yaratdi. Bu haqiqat, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasida yetarlicha ko'tarila olmasliklarini tushuntiradi: sanoat bazasi, institutsional va sanoat muhiti yo'q. Shuning uchun ishchi kuchi va ixtirochilarning zarur malakasi mavjud emas. Markazlar, yangiliklar va yaxshi ta'limni ko'rmayapmiz. Sababi, unga kirish imkoniyatsiz, natijada umuman jamiyatni o'zgartirish jarayoni zaif. M.Kastellsning fikriga ko'ra, umuman olganda "innovatsiyalar, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish markazlari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik yaqin bo'lsa, jamiyatlarning o'zgarishi shuncha tezlashadi va ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi ijobiy teskari aloqalar shuncha ko'p bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish darajasining o'sishi resurslar va ehtiyojlar nisbatlarida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishgan mamlakatlar ko'pincha resurslar yetishmasligiga duch kelishadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasining o'sishi barcha iqtisodiy sub'ektlarning, birinchi navbatda, aholining shaxsiy ehtiyojlarining iqtisodiy ehtiyojlari tizimida miqdoriy o'sish va sifat jihatidan yangilanishga olib keladi.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish darajasi oshgani sayin cheklangan resurslar va aholi ehtiyojlarining cheksiz kengayishi o'rtasida ziddiyat kuchaymoqda. Ijtimoiy mahsulot moddiy tarkib bilan emas, balki yangilik darajasi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari tobora ko'proq nomoddiy investitsiyalarning miqdori va hajmiga - tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari, patentlar va litsenziyalar olish, ta'lim va o'qitish, konsalting xizmatlari, boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va boshqalarga bog'liq. Hozirgi kunda ilm-fanni talab qiladigan tarmoqlar rivojlangan mamlakatlarning YaIMning o'rtacha yarmidan ko'pini tashkil etadi va ushbu tarmoqlar ishlab chiqarish, ish bilan ta'minlash, investitsiyalar va tashqi savdoda eng yuqori o'sish sur'atlarini boshdan kechirmoqda.

Iqtisodiy va innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalarni samarali va muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy shartidir. Bozor iqtisodiyotining mavjud vositalaridan foydalangan holda, innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilarining faoliyatini diqqat bilan muvofiqlashtirish zarur. Bu, banklarning kredit stavkalarini pasaytirishni, nodavlat sektordan moliyaviy resurslarni jalb qilishni, sanoat korxonalarining tobora ko'payib borishini innovatsion jarayonga jalb qilishni va shu bilan innovatsiyalarning iqtisodiy xavfini kamaytirishni talab qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurov, M. S. (2022). Zamonaviy sharoitda O'zbekistonda innovatsion faoliyatning holati va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 15-30.
2. Kurpayanidi, K. I. (2023). Интеграция инновационной деятельности и икт как источник трансформации. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (2), 45-55. Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7699541>
3. Kurpayanidi, K. I., Mamurov, D.E. (2022). Management of innovative activities of business entities in industry: AL-FERGANUS, 200 p.
4. Mamurov, D. (2021). Some issues of activating the transfer of innovative technologies in the industry of Uzbekistan. Интернаука. 12-3(188). – P. 31-33.
5. A.Taniyev —Innovatsion iqtisodiyotl. Darslik. Samarqand, SamDU nashriyoti 2020 y. – 460 b.
6. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>